***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI***

***TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI***

***KAFEDRA: IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT***

***FAN: IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT***

# ***REFERAT***

## ***MAVZU: MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA AUDITORLIK FAOLIYATINING TUTGAN O'RNI***

**TOSHKENT – 2012**

# Reja:

1. Auditorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi va vazifalari

2. O’zbekistonda auditorlik faoliyatini me‘yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari

3. Auditorlik faoliyatining tashkiliy asoslari

4. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar va auditorlik faoliyatini litsenziyalash.

## 1. Auditorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Auditorlik faoliyatining ta‘rifi o’zining tarixiy taraqqiyot yo’lida turli manbalarda turlicha bayon qilingan. Masalan, professor M. M. To’laxo’jaevaning “O’zbekiston Respublikasida Moliyaviy nazorat tizimi” nomli kitobida auditga quyidagicha ta‘rif berilgan:

“audit – bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog’liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to’g’risi-da xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir”.

Auditorlik faoliyati va auditorlik kasbining ta‘rifi O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunida quyidagicha keltirilgan:

Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o’tkazish va ushbu qonun-ning 17-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlar ko’rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Birinchi ta‘rifda auditning tafsiloti keng bayon etilgan bo’lsa, so’ngisida auditorlik faoliyati tekshiruv o’tkazish jarayoni bo’lishidan tashqari professional xizmat ko’rsatish bilan bog’liq tadbirkorlik faoliyati ekanligi ham ta‘kidlangan.

O’zbekistonda davlat hoqimiyati va boshqaruvi organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish qonun bilan taqiqlangan.

Auditor – auditor malaka sertifikatiga ega bo’lgan jismoniy shaxsdir.

Agar auditor auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo’lsa yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzgan bo’lsa, u auditorlik tekshiruvi o’tkazishga jalb etilishi mumkin.

Auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o’tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi hamda boshqa hatti-harakat-lari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar yetkazganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo’ladi.

Shuningdek, Qonunning 4-moddasiga muvofiq “auditor yordamchisi auditor malaka sertifikatiga ega bo’lmagan va auditorlik hisobotida, auditorlik xulosasida, auditorning ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o’tkazish bilan bog’liq bo’lgan boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo’lmagan tarzda auditorning topshirig’iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxsdir”.

Auditor yordamchisining mehnat shartlari qonun hujjat-larida qayd etilgan tartibda tuzilgan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.

Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan ma‘lumotlarni oshkor etmaslik majburiyati auditorning yordamchisiga nisbatan tadbiq etiladi.

Auditorning yordamchisi sifatida ishlangan vaqt auditor malaka sertifikatini olish uchun zarur bo’ladigan ish stajiga qo’shiladi.

O’zbekistonda auditorlik faoliyati mustaqil yuridik shaxs huquqiga ega auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Qonunga ko’ra auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo’lgan yuridik shaxsdir.

Auditorlik faoliyatining maqsad va vazifalari tavsifidan kelib chiqib, uni quyidagicha tasniflash mumkin.

Auditorlik faoliyati

| Auditorlik tekshiruvlar | Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari |
|---|---|
| | |
| - Majburiy auditorlik tekshiruvi<br>- Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi<br>- Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko’ra o’tkaziladigan auditorlik tekshiruvi | - buxgalteriya hisobini yo’lga qo’yish, qayta tiklash va yuritish;<br>- moliyaviy hisobotni tuzish;<br>- milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o’tkazish;<br>- xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarning moliya-xo’jalik faoliyatini tahlil qilish;<br>- buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menedjment va moliya-xo’jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;<br>- auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlar |

Xisobot ma‘lumotlarining ishonchliligini, birinchi navbatda,

buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl), shuningdek boshqa hisobot-larning ishonchliligi va unda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlash (yoki tasdiqlamaslik) auditorlik xizmatining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, buxgalteriya hisobotlari buxgalteriya apparati, boshqa iqtisodiy xizmatlar va korxona bo'limlari, hamda ishlab chiqarish bo'linmalaridagi ko'p sonli xodimlarning uzoq davom etgan va mashaqqatli mehnatlari natijasi hisoblanadi. Ҳisob axborotlari va ular asosida tuziladigan hisobotlarning ishonchliligi va sifati dastlabki hisobning qanday tashkil etilganligiga, hujjatlashtirish intizomining qanchalik mustahkamligiga va umuman korxona hisob siyosatining qay darajada malakali tuzilganligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Buxgalterlik amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim korxonalarda buxgalterlar malakasi yetishmasligi oqibatida dastlabki hujjatlarga ishlov berish, guruhlash va buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri (yoki butunlay) aks ettirmasdan (asosan pul va hisob-kitob muomalalari), ularni devonxona papkalarida saqlab qo'yish bilan cheklaniladi. Na-tijada, hisobotlarni tuzishda ko'plab chalkashliklar, noaniq-liklar, joriy hisob ma'lumotlari va hisobot ko'rsatkichla-ridagi nomuvofiqliklar yuzaga keladi. Agar buxgalterlik hisobini tashkil etish va yuritishga talab darajasida e'tibor qilinganida, bunday chalkashliklar paydo bo'lmas edi.

Shuning uchun buxgalterlik hisobining qay darajada tashkil etilganligi va yuritilayotganligini, buxgalterlarning malakasi va intizomini, dastlabki hujjatlarga ishlov berilish sifati va korxona moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalarini aks ettiruvchi buxgalterlik yozuvlarining to'g'riligini aniqlamasdan, yuqorida qayd etilgan asosiy vazifani hal etish mumkin emas.

Auditorlik tekshiruvlari ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etish, korxonadagi tartib, mehnat va texnologik intizomni, tovar-moddiy zahiralarning omborlar va boshqa saqlash joylaridagi hisobi, mulklarning saqlanishi, hisob-kitoblar holati va korxona moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan boshqa ko'plab holatlarni qamrab oladi. Shuning uchun auditorlik hisobotida korxona moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalariga bevosita ta'sir-ko'rsatadigan, hamda hisob ma'lumotlari va hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini pasaytirishiga olib keladigan, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi katta kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar berilishi lozim.

Shuningdek, O'zbekistondagi auditorlik faoliyati oldida turgan

muhim vazifalardan biri – xorijlik hamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasi berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalari tashkil etish hisoblanadi.

## 2. O’zbekistonda auditorlik faoliyatini me‘yoriy-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari

Auditorlik faoliyatini me‘yoriy tartibga solish tizimining birinchi (yuqori) pog’onasida O’zbekiston Respublika-sining “Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonuni (yangi tahriri) turadi. Ushbu qonun O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 26 maydagi qaroriga muvofiq qabul qilingan bo’lib, 29 moddadan iborat (2-ilova).
“Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respub-likasi Qonunini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan hukumat qarorlarini ham ushbu tizimning birinchi pog’ona-siga kiritish mumkin. Jumladan, 22 sentyabr 2000 yilda O’z-bekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to’g’risida”gi Qaror qabul qilindi.Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq “Auditorlik xulosa-larini soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to’g’risidagi Nizom”, “Majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazishdan bo’yin tovlaganligi uchun xo’jalik yurituvchi sub‘ektlardan jarima undirish tartibi to’g’risidagi Nizom” va “Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to’g’ri-sidagi Nizom” tasdiqlangan.

Ushbu qarorga muvofiq: ijobiy auditorlik xulosasi mavjudligi xo’jalik yurituvchi sub‘ektining moliya-xo’jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan oxirgi tekshirish o’tkazilgandan keyin kamida 24 oydan oldin tekshirilmasligi uchun asos hisoblanadi;
Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliya-xo’jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan tegishli auditorlik tashkiloti albatta jalb qilingan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to’g’riligi uchun auditorlik tashkiloti javob beradi.

Qarorning 3-bandiga muvofiq O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi auditorlik faoliyatini litsenziyalash maxsus vakolatli davlat organi etib tasdiqlangan va unga quyidagi funktsiyalar yuklatilgan:

- o’z vakolatlari doirasida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlarni, shu jumladan auditorlik faoliyatining milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- ➢ auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish;
- ➢ auditorlarning respublika jamoat birlashmasi bilan kelishgan holda auditorlar malaka sertifikatini olish uchun o'qitish dasturlarini va malaka imtihonlari topshirish tartibini tasdiqlash;
- ➢ auditorlik faoliyatini amalga oshirishga berilgan litsenziyaning, auditorlar malaka sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va bekor qilish;
- ➢ malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlar reestrini va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari hisobi-ni yuritish**.**

Auditorlik tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdori eng kam oylik ish haqining kamida 1200 baravari miqdorida belgilangan. Bunda yangidan tashkil etiladigan auditorlik tashkilotlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan sarmoyasini shakllantirishlari zarur.

## 3. Auditorlik faoliyatining tashkiliy asoslari

Auditorlik tekshiruvi qay tarzda o'tkazilishiga ko'ra **majburiy** va **tashabbus tarzidagi** (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlarga bo'linadi. Shuningdek, auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkin.

"Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq faoliyat turiga ko'ra quyidagi iqtisodiy sub'ektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi kerak:

-aktsiyadorlik jamiyatlari;

-banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

-sug'urta tashkilotlari;

investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;

manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;

mablag'larning hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar;

ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisobot yilidan keyingi yilning 1

mayigacha yillik moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o’tkazmagan va auditorlik xulosasiga ega bo’lmasa, u majburiy auditorlik tekshiruvi o’tkazilishi-dan bo’yin tovlagan hisoblanadi.

“Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunning 10-moddasiga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvidan o’tkazilishi lozim bo’lgan barcha xo’jalik yurituvchi sub‘ektlar oldingi yil uchun yillik moliyaviy hisobotlarini joriy yilning 1 mayigacha auditorlik tekshiruvidan o’tkazadilar. Auditorlik tekshiruvi yakunlanganidan so’ng xo’jalik yurituvchi sub‘ekt auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan bir nusxaini 15 kun ichida tegishli soliq organlariga topshirishi lozim. Agar auditorlik xulosasining bunday nusxasini soliq organiga o’z vaqtida taqdim etilmasa, xo’jalik yurituvchi sub‘ekt soliq organiga buning sababi ko’rsatilgan tushuntirish xati taqdim etadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo’yin tovlagan xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarga soliq organi tomonidan jarima solinadi. Xo’jalik yurituvchi sub‘ekt rahbari esa majburiy auditorlik tekshiruvidan bo’yin tovlaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Undirilgan jarima **jarima solish to’g’risidagi qaror** topshirilgan kundan boshlab 10 kun ichida to’lanib, to’liq miqdorda respublika byudjetiga o’tkaziladi. Agar jarima o’z vaqtida to’lanmasa, soliq qonunchiligiga muvofiq peniya hisoblangan holda so’zsiz undirib olinadi.

Jarima undirilishi xo’jalik yurituvchi sub‘ektni majburiy auditorlik tekshiruvdan o’tishdan ozod qilmaydi.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo’yin tovlaganligi uchun undiriladigan jarimalar stavkalari xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarning hisobot yili oxirida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi tushumining miqdoriga qarab eng kam oylik haqining 100 baravaridan 500 baravarigacha tabaqalashtirilgan.

Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo’yin tovlaganlik uchun tabaqalashtirilgan jarima stavkalari:

| Jarima miqdori | Bir yilda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS bilan birga) |
|---|---|
| Eng kam oylik ish haqi miqdorining 100 baravari | Eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravarigacha |
| Eng kam oylik ish haqi miqdorining 300 baravari | 500 baravaridan 15 ming baravarigacha |
| Eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravari | 15 ming baravaridan ortiq |

Jarima summasini hisoblash uchun jarima solish to’g’risida qaror chiqarilgan sanadagi eng kam oylik ish haqi miqdori asos qilib olinadi.

Byudjetdan tashqari va xayriya jamg’armalarining amaldagi tushumlari (a‘zolik badallarini ham qo’shgan holda) jarima hisoblashda asos bo’ladigan yalpi tushum hisoblanadi.

Xo’jalik yurituvchi sub‘ektlar jarima solish to’g’risidagi qaror ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin. **“**Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunning 11-mod-dasiga muvofiq:“Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo’jalik yurituvchi sub‘ektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o’tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkilotlari o’rtasida tuziladigan **auditorlik tekshiruvini o’tkazish to’g’risidagi shartnoma**da belgilab qo’yiladi”.

Tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvi odatda xo’jalik yurituvchi sub‘ektning qaroriga ko’ra o’tkazi-ladi. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi o’tkazishda xo’jalik yurituvchi sub‘ekt o’z oldiga asosan quyidagilarni maqsad qilib qo’yishi mumkin:

- buxgalteriya hisobini tashkil etishning amaldagi qonun-chilikka muvofiqligini aniqlash;
- butun buxgalteriya hisobi tizimini yoki uning ayrim bo’limlarining ahvolini nazorat va tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi bo’yicha ish yuritishni tashkil etish;
- buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobot tuzish ishlarining me‘yoriy ta‘minlanganligini aniqlash;
- hisobni kom pyuterlashtirishda qo’llaniladigan vosita va uslublarni baholash;
- soliq qonunchiligiga rioya qilinishi va soliqqa tortishga doir hisob-kitoblar ahvolini tekshirish va h. k.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi har xil sabablarga ko’ra o’tkazilishi mumkin. Birinchidan, bozor iqti-sodiyotiga o’tish munosabati bilan xususiylashtirilgan va aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan ko’plab sobiq dav-lat korxonalari maxsus idoraviy davlat nazorat organlari tomonidan tekshirilishi barham topdi. Shuningdek, mulkchilik va munosabatlarning yangi turlari hisob obe‘ktlariga aylandi. Ikkinchidan, mulk egalari, investorlar va aktsiyadorlarning korxona moliya-xo’jalik faoliyatining ahvoli to’g’risidagi xolis axborotlarni talab qilishlari. Shuningdek, buxgalter xodimlarining beqarorligi ya‘ni

o’zgarib (almashlanib) turishi, ular malakasining pastligi va boshqalar. Uchinchidan, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va islohotlarning chuqurlashtirilishi munosabati bilan me‘yoriy hujjatlarning tez-tez o’zgarib turishi va yangilarining qabul qilinishi va h. k. Bunday muammolar bilan to’qnashayotgan korxonalarda malakali auditorlik xizmatlariga ehtiyoj kuchayib, ularning rahbarlari mustaqil auditorlik tashkilotlariga yordam so’rab murojaat qilmoqdalar. Yuqorida ta‘kidlanganidek, majburiy auditorlik tekshiruvi to’liq (kompleks) o’tkaziladi. Tashabbus tarzidagi ya‘ni ixtiyoriy audit esa to’liq yoki qisman o’tkazilishi mumkin. Shuningdek, tashabbus tarzidagi auditda tekshiruvlar chuqurligi ham har xil bo’lishi mumkin. Masalan: hisob ma‘lumotlarini dastlabki hujjatlardan boshlab to’la va yoppasiga tekshirish; dastlabki hisob ma‘lumotlarini yoki faqat hisob registrlari va hisobotlardagi ma‘lumotlarni tanlab tekshirish.

“Auditorlik faoliyati to’g’risida”gi qonunning 15-moddasiga muvofiq auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko’ra auditorlik tashkiloti tomonidan, ular o’rtasida xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarning moliya-xo’jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o’tkazish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan o’tkaziladi (3).

Shuningdek, auditorlik tekshiruvini o’tkazish bo’yicha ishlarga haq to’lash auditorlik tekshiruvini belgilagan organ hisobidan amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlari (tergov organlari, sud va arbitraj sudi) xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarni auditorlik tekshiruvidan o’tkazishga topshiriq berishlari mumkin. Bunday topshiriq huquqni muhofaza qilish organlarida quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo’lganida beriladi:

- qo’zg’atilgan ( qayta ko’rilayotgan) jinoiy ishlar;
- fuqarolik ishini qabul qilish (qayta ko’rish);
- arbitraj sudining idoraviy tasarrufidagi ishlar.

Ҳuquqni muhofaza qilish organlari tomonidan beriladigan bunday topshiriqlar mazmuni jinoiy ish qo’zg’atish (qayta ko’rish), fuqarolik ishini qabul qilish (qayta ko’-rish), arbitraj sudining idoraviy tasarrufidagi ishlar uchun asos bo’lgan holatlarga mos kelishi lozim. Bunday topshiriqlarga muvofiq o’tkaziladigan auditorlik tekshiruvlar muddati auditorlik tashkiloti bilan kelishilgan holda aniqlanib, odatda 1 oydan oshmasligi lozim.

Auditorlik tekshiruvi o’tkazishga topshiriq bergan hu-quqni muhofaza qilish yoki nazorat qiluvchi organlar tekshiruv o’tkazish

uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishlari, zarur hollarda auditorlar va ular oila a‘zolarining shaxsiy xavfsizliklarini ham ta‘minlashi lozim. Shuningdek, oldin tekshirilgan xo’jalik yurituvchi sub‘ekt faoliyati aynan bir xil asoslarga ko’ra oldingi tekshiruvni o’tkazgan auditorlik tashkiloti tomonidan qayta tekshirishga ruxsat etilmaydi.

Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko’ra o’tkazilgan auditorlik tekshiruvlar jarayonida olingan ma‘lumotlar faqat mazkur organlar ruxsati bilan va ular ruxsat qilgan hajmda oshkor qilinishi mumkin.

Ҳuquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko’ra o’tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo’yicha tuzilgan au-ditorlik xulosasi O’zbekiston Respublikasi jinoyat-protses-sual kodeksiga muvofiq taynlangan sud-buxgalteriya ekspertizasi xulosasiga tenglashtiriladi.

Sud-buxgalteriya ekspertizasi ayrim o’ziga xos xususiyatlari bilan auditorlik tekshiruvlaridan tubdan farq qiladi. Ko’p hollarda ekspertiza ekspert muassasalarining maxsus xonalarida o’tkaziladi. Zarur hollarda ekspertiza o’tkazish joyi ekspert tomonidan, ekspertizani tayinlagan organ bilan kelishilgan holda aniqlanadi.

Xulosa tuzish uchun zarur bo’lgan dastlabki va yig’ma buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari va hisobot shakllari ekspertiza ob yektlari bo’lib hisoblanadi. Shuningdek, ekspertiza o’tkazish jarayonida taftish dalolatnomasi, ekspert xulosalari, ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar va guvohlarning ko’rsatmalari va ishdagi boshqa materiallarda keltirilgan ma‘lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Sud-buxgalteriya ekspertizasini amalga oshirishda quyidagilarni aniqlashga doir masalalar hal etiladi:

- tovar-moddiy zahiralar, pul mablag’larining kamomadi yoki oshiqcha chiqishi va moddiy zarar summalari bilan bog’liq ma‘lumotlarning haqqoniyligi;
- tovar-moddiy zahiralarni qabul qilish, saqlash, sotish va pul mablag’larining harakatiga doir muomalalarni rasmiylashtirishning to’g’riligini;
- moliya-xo’jalik faoliyatiga doir muomalalarni hujjat-larda aks ettirishning buxgalteriya hisobi xalqaro va milliy standartlari hamda boshqa tegishli me‘yoriy huj-jatlarga muvofiqligi;
- tergov olib borilayotgan ishga aloqador shaxslar ko’rsatmalarining buxgalteriya hisobi ma‘lumotlariga muvofiqligi;
- materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar va pul mablag’-larini kirimi, chiqimi hamda hisobdan o’chirilishining hujjatlar bilin asoslanganligi; hisobga olinmay qol-gan mahsulotlar hajmi va

qiymatini texnologlar, tovarshunoslar va boshqa mutaxassislar xulosalarini hisobga olgan holda aniqlash;

- fuqarolik sudlov ishlari tartibida hal etiladigan da‘volarga doir summalar miqdorining hujjatlar bilan asoslanganligi;
- tovar-moddiy zahiralar va pul mablag’lari kamomadi yoki oshiqcha chiqishi vujudga kelgan davrda moddiy javobgar hisoblangan shaxslar, hamda ekspertiza jarayonida buxgalteriya hisobi va nazorat talablariga rioya qilinma-ganligi aniqlanganda, buning uchun mas‘ul shaxslar;
- moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan yoki uning o’z vaqtida aniqlanishiga to’sqinlik qilgan, buxgalteriya hisobi va nazorat tizimining kamchiliklari.

## 4. Auditorlik kasbiga malakaviy talablar va auditorlik faoliyatini litsenziyalash.

Auditorlarning yuqori darajadagi kasb mahorati o’tkazi-ladigan auditorlik tekshiruvlar va professional xizmatlar eng yuqori darajada amalga oshirilishining garovi hisobla-nadi.

Aynan mana shuning uchun ham Moliya Vazirligi tomonidan auditorlik faoliyati bilan shug’ullanishga yuqori talablar o’rnatilgan.

Auditorlik kasbining mahorat darajasiga qo’yiladigan asosiy talablar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masining 2000 yil 22 sentyabridagi 365-sonli “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to’g’risida”gi qarorida belgilangan.

Auditorlik malaka sertifikatiga ega bo’lish uchun da‘vogarlar O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 2000 yil 28 avgustda 17-17G’534-sonli buyruq bilan tasdiqlangan “Auditorlarni tayyorlash va sertifikatsiyalash dasturi” va 2000 yil 25 sentyabrda 68-sonli buyruq bilan tasdiqlangan “Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to’g’risidagi Nizom”ga muvofiq 240 soatlik kursni o’qishi va imtihon topshirishlari kerak.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash – bu audit sohasi-dagi qonunchilikka rioya qilinishi ustidan davlat nazorati o’rnatish uslubidir. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nomi yuqorida qayd etilgan 365-sonli qaroriga muvofiq “Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to’g’risida NIZOM”tasdiqlangan (3-ilovasi).

Ushbu Nizomga muvofiq O’zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyati bilan auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun

maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo’lgan taqdirdagina amalga oshiriladi. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari esa bundan mustasno. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash Moliya Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish, litsenziya berishni rad etish, litsenziyaning amal qilish muddatini to’xtatish, bekor qilish, to’xtatib turish yoki amal qilishini tiklash to’g’risidagi qaror Moliya Vazirligining buyrug’i bilan rasmiylashtiriladi.

Auditorlik tashkilotlari litsenziya olish uchun Moliya Vazirligiga taqdim qiladigan arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qiladilar:

1. Ta‘sis hujjatlarining (ustav, ta‘sis shartnomasi) notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxalari va O’zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma;
2. Kamida ikki auditor malaka sertifikatlarining tasdiq-langan nusxalari;
3. Soliq to’lovchining identifikatsiya raqami (STIR-INN) berilganligi to’g’risida Soliq organi tomonidan berilgan ma‘lumotnoma;
4. Arizani ko’rib chiqish uchun yig’im to’langanligini tasdiqlovchi bankning to’lov hujjati.

Ushbu hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi va bulardan boshqa hujjatlarni talab etilishiga yo’l qo’yilmaydi.

Auditorlik tashkiloti topshirgan ariza va boshqa zarur hujjatlar litsenziyalovchi organ tomonidan 15 kun ichida ko’rib chiqi-lib, litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to’g’risida qaror qabul qilinishi lozim. Ҳujjatlar litsenziyalovchi organlar tomonidan ko’rib chiqilganligi uchun auditorlik tashkiloti eng kam ish haqining (to’lov kunidagi) ikki baravari miqdorida yigim to’lanadi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilish muddati berilgan sanadan boshlab 5 yil. Litsenziya 5 yildan kam muddatga faqat auditorlik tashkilotining arizasiga ko’ra berilishi mumkin. Litsenziya yagona (standart) shaklda beriladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to’g’risida qaror qabul qilingandan so’ng uch kun mobaynida bu haqda auditorlik tashkilotiga bildirish xati yuborishi kerak.

Litsenziya berish to’g’risidagi bildirish xati litsenziya bitimi loyihasi ilova qilingan holda yozma shaklda auditorlik tashkilotiga yuborilib (topshirilib), unda davlat boji to’lanadigan bank rekvizitlari va to’lash muddati ko’rsatiladi. Litsenziya uchun davlat boji eng kam ish haqining to’rt baravari miqdorida undiriladi va respublika byudjetiga o’tkaziladi.

Litsenziya berish auditorlik tashkiloti tomonidan davlat boji

to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan taqdirda va litsenziya bitimi imzolanganidan so'ng amalga oshiriladi.

Litsenziyaning asli auditorlik tashkilotiga beriladi, nusxasi belgilangan tartibda litsenziyalovchi organda saqlanadi.

Auditorlik tashkilotiga litsenziya berish litsenziyalovchi organ tomonidan quyidagi hollarda rad etilishi mumkin:

- auditorlik tashkiloti tomonidan zarur darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganda;

- taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki chalkash ma'lumotlar bo'lganda;

- auditorlik tashkilotining litsenziya talablari va shartlariga nomuvofiqligi.

Litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf qilish uchun auditorlik tashkilotiga ko'pi bilan 15 kun mud-dat beriladi.

Kamchiliklar bartaraf qilinganidan so'ng hujjatlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Ҳujjatlarni qayta ko'rib chiqish litsenziyalovchi organ tomonidan auditorlik tashkilotining arizasi va unga ilova qilgan barcha zarur hujjatlari olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida amalga oshiriladi. Ҳujjatlarni qayta ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmaydi.

Auditorlik tashkiloti litsenziyaning amal qilish muddati tugashidan ikki oy oldin litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza taqdim etadi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

-ta'sis hujjatlarining notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxalari (litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilgan sanada ularga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda);

-auditorlik tashkiloti tarkibidagi auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

-moliyaviy holati to'g'risida belgilangan shakldagi ma'lumotnoma;

-arizani qayta ko'rib chiqish uchun yigim to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun auditorlik tashkiloti tomonidan bir eng kam ish haqi miqdorida yigim to'lanadi. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish to'g'-risidagi qaror auditorlik tashkiloti ariza topshirgan kundan boshlab o'n kun ichida qabul qilinishi lozim. Litsenziyaning amal qilish muddati tegishli davlat boji to'langan holda 5 yilgacha muddatga uzaytirilishi mumkin. Bu ish auditorlik tashkiloti davlat boji to'laganligi to'g'risidagi hujjatni taqdim etgandan so'ng 3 kun ichida amalga oshirilishi lozim.

Auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya bitimining talablari va shartlariga rioya qilinganda litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish oldingi berilgan litsenziya blankasiga maxsus belgi qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar litsenziyaning amal qilishi ariza berilgan sanada yoki ariza ko'rib chiqilayotgan davrda qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, litsenziyaning amal qilish muddati uzaytirilmaydi.

Auditorlik tashkiloti qayta tuzilgan, uning nomi yoki o'rni o'zgargan hollarda, auditorlik tashkiloti, yoxud uning huquqiy vorisi, qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bir hafta muddatda litsenziyalovchi organga qayta rasmiylashtiriladigan litsenziyani va tegishli o'zgartirishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishlari lozim.

Xujjat litsenziyalovchi organga auditorlik tashkiloti tomonidan bevosita, yoxud hujjatlar olinganligini bildirib qo'yish sharti bilan pochta aloqasi vositasi orqali yetkazib beriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi qaror tegishli ariza olingan kundan boshlab besh kun muddatda litsenziyalovchi organ tomonidan qabul qilinadi. Bunda litsenziyalovchi organ litsenziyalar reestriga tegishli tarzda o'zgartirishlar kiritadi.

Amal qilish muddati tugamagan yo'qotib qo'yilgan yoki yaroqsiz holga kelib qolgan litsenziya o'rniga, auditorlik tashkilotining arizasiga ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dublikat berilishi mumkin.

Bunday hollarda auditorlik tashkiloti yo'qotib qo'yilgan yoki yaroqsiz holga kelib qolgan litsenziyaning haqiqiy emasligi to'g'-risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishi, shuningdek, e'lonni litsenziyalovchi organga taqdim etishi lozim.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilganligi yoki dublikat berilganligi uchun bir eng kam ish haqi miqdorida yigim litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi. Ushbu to'lovni o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi litsenziyani qayta ras-miylashtirish uchun berilgan arizaga ilova qilinadi.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar auditorlik tashkilotiga auditorlik tekshiruvini o'tkazish ta'qiqlanadi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda auditorlik tashkilotiga nisbatan quyidagi litsenziya talablari va shartlari qo'-yiladi:

- "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, auditorlik faoliyatining milliy standartlari, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- shtatida kamida ikki nafar auditor bo'lishi;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida olingan axborotning

maxfiyligini ta‘minlash;

- auditorlik tekshiruvlari o’tkazish bo’yicha shartnoma majburiyatlarini o’z vaqtida va sifatli bajarish;
- auditorlik tashkiloti rahbari lavozimiga faqat auditorni tayinlash;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirish chog’ida mustaqillikni ta‘minlash;
- ishonchli auditorlik hisoboti tuzish va auditorlik xulosasi berish;
- faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ustav kapitaliga ega bo’lish;
- fuqarolik mas‘uliyatini sug’urta qilish polisiga ega bo’lish;
- o’z pochta manzil o’zgartirilganligi to’g’risida 10 kun muddatda litsenziyalovchi organga bildirish xati yuborish;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq bo’lgan boshqa axborotni litsenziyalovchi organ talabiga ko’ra taqdim etish.

Litsenziyalovchi organ auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilgan hollarda litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini to’xtatib turishga yoki butunlay to’xtatishga haqlidir.

Auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilgan, shuningdek auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziyalovchi organning aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to’g’risidagi qarori bajarilmagan hollarda litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini to’xtatib qo’yishi mumkin.

Litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini to’xtatib qo’yish to’g’risida qaror qabul qilinganligi haqida qaror qabul qilinganidan so’ng uch kun mobaynida auditorlik tashkilotiga bildirish xati yuborish shart.

Litsenziyalovchi organ auditorlik tashkilotiga litsenziyaning amal qilishini to’xtatib qo’yishga olib kelgan holatlarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Bu muddat olti oydan oshib ketishi mumkin emas.

Litsenziyaning amal qilishi to’xtatib qo’yilgan davrda auditorlik tashkiloti tomonidan faoliyat amalga oshirilganda qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Litsenziyaning amal qilishini to’xtatib qo’yishga olib kelgan holatlar auditorlik tashkiloti tomonidan bartaraf etilgan taq-dirda litsenziyalovchi organ ushbu holatlar bartaraf etilganligi to’g’risida tasdiqnoma olingan paytdan boshlab 10 kun muddatda li-tsenziyaning amal qilishini tiklash to’g’risida qaror qabul qiladi.

Basharti auditorlik tashkiloti ko’rsatib o’tilgan holatlarni belgilangan

muddatda bartaraf etmagan bo’lsa, litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini butunlay to’xtatadi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda ham to’xtatiladi:

- auditorlik tashkiloti litsenziyaning amal qilishini to’xtatish to’g’risida ariza bilan murojat qilganda;
- auditorlik tashkiloti tugatilganda;
- auditorlik tashkilotini qayta tashkil etish natijasida uning faoliyati to’xtatilgan taqdirda, qayta o’zgartirish bundan mustasno;
- auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya talablari va shartlari muntazam ravishda buzib kelinganda yoki bir marta qo’pol ravishda buzilganda.

Litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini butunlay to’xtatish to’g’risidagi sabablari asoslangan holda qaror qabul qilinganligi haqida u qabul qilingandan keyin uch kun mobaynida auditorlik tashkilotiga bildirish xati yuboradi. Ushbu qarorni auditorlik tashkiloti olgan kundan boshlab litsenziya o’n kun mobaynida litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo’q qilinishi lozim. Qaror qabul qilingan sanadan boshlab litsenziyaning amal qilishi to’xtatilgan hisoblanadi.

Litsenziyaning amal qilishini to’xtatish uchun asos bo’lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo’pol ravishda buzishga quyidagilar kiradi:

- faoliyatning auditorlik faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan boshqa turlarini amalga oshirish;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta‘minlamaslik;
- ishonchsiz yoxud butunlay yolg’on auditorlik xulosasi tuzish;
- auditorlik tekshiruvi o’tkazish chog’ida olingan maxfiy axborotni auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining ruxsatisiz oshkor qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya quyidagi hollarda yuridik kuchini yo’qotgan va bekor qilingan hisoblanadi:

- auditorlik tashkiloti litsenziyani bekor qilish to’g’risida ariza bilan murojaat qilganda;
- litsenziya qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda;
- maxsus vakolatli davlat organining litsenziya berish to’g’-risidagi qarori noqonuniyligi aniqlanganda;
- agar auditorlik tashkiloti litsenziya berish uchun qaror qabul qilinganligi to’g’risida bildirish xati yuborilgan (topshirilgan) paytdan

boshlab uch oy davomida litsenziyalovchi organga davlat boji to’langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etmagan bo’lsa, yoxud litsenziya bitimini tasdiqlamagan bo’lsa.

Litsenziya sud qaroriga ko’ra ham bekor qilinishi mumkin.

Litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini bekor qi-lish to’g’risida qaror qabul qilinganligi haqida auditorlik tashkilotiga qaror qabul qilingandan so’ng uch kun mobaynida bildirish xati yuborishi lozim. Ushbu qaror auditorlik tashkiloti tomonidan olingan kundan boshlab litsenziya o’n kun davomida litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo’q qilinishi kerak. Bekor qilish to’g’risidagi qaror litsenziya berilgan sanadan boshlab amal qiladi.

Litsenziyaning amal qilishini to’xtatib qo’yish, yangilash, to’xtatish to’g’risidagi, shuningdek, litsenziyani bekor qilish haqida litsenziyalovchi organ tomonidan chiqarilgan qarorlar ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinishi kerak.

Litsenziyalovchi organ auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo’lgan auditorlik tashkilotlarining reestrini yuritadi, unda quyidagilar ko’rsatib o’tilgan bo’lishi kerak:

- auditorlik tashkilotining nomi va uning joylashgan o’rni (pochta manzili);
- telefon (faks) raqami;
- hisob-kitob schyoti;
- soliq to’lovchining identifikatsiya raqami;
- ta‘sischilarning ustav kapitalidagi ulushlari to’g’risidagi axborot;
- tashkilot rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi hamda auditor malaka sertifikatining sanasi, uning tartib raqami, shuningdek, auditor tashkilotida ishlovchilarning malaka sertifikatlarining tartib raqamlari va sanalari;
- litsenziya berilgan sana, uning tartib raqami va amal qilish muddati;
- litsenziyalarning amalda bo’lishini uzaytirish, to’xtatib turish, to’xtatish, tiklash va bekor qilish asoslari va sanalari;
- litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish va dublikatlar berish asoslari va sanalari.

Reestrdagi axborot manfaatdor shaxslarning u bilan tanishib chiqishlari uchun ochiq hisoblanadi va yozma holdagi so’rovga ko’ra reestrdan ko’chirma tariqasida beriladi.

Bir auditorlik tashkilotiga nisbatan reestrdan olingan axborotni berganlik uchun eng kam ish haqining (axborot taqdim etish to’g’risida ariza berilgan sanadagi) yarmi miqdorida haq undiriladi.

Davlat hoqimiyati va boshqaruvi organlariga reestrdan olingan axborot bepul taqdim etiladi.

Reestrdan olingan axborotni taqdim etganlik uchun to’lov summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o’tkaziladi.

Reestrdan olingan axborotni taqdim etish muddati tegishli ariza berilgan sanadan boshlab (uni taqdim etganlik uchun haq to’langanligi to’g’risida hujjat taqdim etilgan taqdirda) uch kundan oshib ketishi mumkin emas.

Litsenziyalovchi organ chiqargan qaror ustidan auditorlik tashkiloti belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishi mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2008.

2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari G' I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2010. – 56 b.

3. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2010 yilning asosiy yakunlari va 2011 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi G'G' Xalq so'zi, 2011 yil 30 yanvar .

4.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi G'G' Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar .

5. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rsmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: "Adolat", 2008 y.-692 b.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.

6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.

7. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. (Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan: O'zR 13.12.2002 y. 447-II-son Qonuni, O'zR 04.04.2006 y. O'RQ-28-son Qonuni, O'zR 10.10.2006 y. O'R-Q-59-son Qonuni, O'zR 17.09.2007 y. O'R-Q-110-son Qonuni, O'zR 09.09.2009 y. O'R-Q-216-son Qonuni asosida)

8. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son Qaroriga 2-ilova "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida" Nizom.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qaroriga ilova "Auditorlik tashkilotlari to'g'risida" Nizom.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-son Qarori – "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida".

11. Audit, Darslik. 1 jild. M.M.To‘loxodjayeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshqalar.O’z.R. Oliy va o’rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: NORMA 2008-320 b.

12. Audit, Darslik. 11 jild. M.M.Tulojodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshqalar.O’z.R. Oliy va o’rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.-Toshkent: NORMA 2008-320 b.

13. Auditorlik faoliyati bo’yicha uslubiy kullanmalar tupalami.G’ X.Kosimov, L.Yugay, A.Xoshimova, B.Pardaev, B.Abdunazarov.-Toshkent, 2010.-320 b.

14. Sbornik metodicheskix ukazaniy po auditu X.Koso’mov, L.Yugay, A.Xoshimova, B.Pardaev, Sostavitel : B.Abdunazarov.-Tashkent, 2009.-304 s.

15. Do’smuratov R.D.Audit. O’quv qo’llanma (I qism). G’ R.D. Do’smuratov, Sh. Fayziyev. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. - 178 s